



Wiki texnologiyasi va uning ingliz tilini o'rgatishdagi pedagogik zaruriyati

Yunusova Dildora Hamrakulovna –

Toshkent davlat sharshunoslik universiteti tadqiqotchisi

E-mail: d.yunusova@mail.ru

ORCID: <https://orcid.org/0009-0007-2626-0475>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Wiki texnologiyasining nazariy asoslari, mazmun-mohiyati hamda ingliz tilini o'qitish jarayonidagi pedagogik imkoniyatlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Wiki texnologiyasining hamkorlikka asoslangan ta'lim muhitini yaratish, talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini faollashtirish, tanqidiy va ijodiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishdagi o'rni asoslab berilgan. Shuningdek, mazkur texnologiyaning yozma nutqni takomillashtirish, muloqot madaniyatini rivojlantirish, axborotni izlash, tahlil qilish, qayta ishlash va baholash ko'nikmalarini shakllantirishdagi didaktik imkoniyatlari yoritilgan. Maqolada Wiki platformalaridan foydalanish orqali ta'lim oluvchilarning hamkorlikda ishlash, o'zaro fikr almashish, loyiha faoliyatini tashkil etish hamda raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishga erishish mumkinligi ko'rsatib berilgan. Tadqiqot natijalari Wiki texnologiyasining ingliz tili ta'limi samaradorligini oshirish, talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish va zamonaviy raqamli ta'lim muhitini tashkil etishdagi muhim pedagogik vositalardan biri ekanligini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: Wiki texnologiyasi, ingliz tili, kommunikativ kompetensiya, hamkorlikda o'qitish, raqamli ta'lim, yozma nutq, mustaqil ta'lim, pedagogik texnologiyalar, Web 2.0.

Вики-технология и педагогическая необходимость её использования в обучении английскому языку

Аннотация. В статье с научно-теоретических позиций проанализированы теоретические основы, сущность и содержание Wiki-технологии, а также её педагогические возможности в процессе обучения английскому языку. Обоснована роль Wiki-технологии в создании образовательной среды, основанной на сотрудничестве, активизации самостоятельной учебной деятельности студентов, развитии компетенций критического и творческого мышления. Кроме того, раскрыты дидактические возможности данной технологии в совершенствовании письменной речи, развитии культуры общения, формировании навыков поиска, анализа, обработки и оценки информации. В статье показано, что использование Wiki-платформ способствует организации совместной работы обучающихся, взаимному обмену мнениями, осуществлению проектной деятельности и развитию цифровых компетенций. Результаты исследования

подтверждают, что Wiki-технология является одним из важных педагогических инструментов повышения эффективности обучения английскому языку, развития коммуникативной компетенции студентов и создания современной цифровой образовательной среды.

Ключевые слова: Wiki-технология, английский язык, коммуникативная компетенция, обучение в сотрудничестве, цифровое образование, письменная речь, самостоятельное обучение, педагогические технологии, Web 2.0.

The pedagogical necessity of using wiki technology in english language teaching

Annotation. This article provides a scientific and theoretical analysis of the theoretical foundations, conceptual essence, and pedagogical potential of Wiki technology in English language teaching. It substantiates the role of Wiki technology in creating a collaborative learning environment, enhancing students' independent learning activities, and developing critical and creative thinking competencies. The article also examines the didactic potential of this technology for improving writing skills, developing a culture of communication, and fostering skills related to searching for, analysing, processing, and evaluating information. It demonstrates that the use of Wiki platforms can facilitate collaborative work among learners, the exchange of ideas, the organisation of project-based activities, and the development of digital competencies. The research findings confirm that Wiki technology is an important pedagogical tool for increasing the effectiveness of English language teaching, developing students' communicative competence, and creating a modern digital learning environment.

Keywords: Wiki technology, English language, communicative competence, collaborative learning, digital education, writing skills, independent learning, pedagogical technologies, Web 2.0.

KIRISH

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lim jarayoniga integratsiya qilish bugungi kunda chet tillarini o'qitish metodikasining eng dolzarb va ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanib ulgurdi. Zamonaviy raqamli vositalar hamda ijtimoiy xizmatlar negizida xorijiy tillarni o'rgatishning pedagogik va metodik tizimini takomillashtirishga oid ilmiy tadqiqot ishlari ortib bormoqda. Ana shunday ilg'or va interaktiv imkoniyatlarga ega raqamli vositalar sirasiga Web 2.0 konsepsiyasining tarkibiy qismi hisoblangan viki (Wiki) texnologiyasi kiradi. Ushbu texnologiya til o'rgatish muhitini an'anaviy passiv formatdan faol, hamkorlikka asoslangan va dinamik ko'rinishga o'tkazishda muhim pedagogik zaruriyat sifatida namoyon bo'ladi. Viki texnologiya bu veb xizmatlarining bir turi bo'lib, iu bir kishiga yoki bir-biridan uzoqlashgan bir guruh insonlarga yagona hujjat ustida ishlash, unga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish imkoniyatini beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Viki xizmati nomi gavaiy tilidan ("wiki-wiki") olingan bo'lib, "tez" degan ma'noni anglatadi. Ya'ni axborotga tezkor kirish imkoniyatini bildiradi. Ushbu viki-texnologiya bir-biridan masofaviy uzoqlikda bo'lgan yakka tartibdagi foydalanuvchilar yoki muayyan o'quvchilar guruhiga yagona raqamli hujjat, matn yoki loyiha ustida birgalikda ishlash muhitini taqdim etadi. Tizimda ro'yxatdan o'tgan har bir ishtirokchi muayyan kontentni mustaqil yaratishi, unga tuzatishlar kiritishi, to'ldirishi yoki ortiqcha qismlarini o'chirishi mumkin. Bunda o'quv materiali faqat matndan iborat bo'lib qolmay, o'z ichiga multimedia elementlarini (tasvirlar, audio va video fayllar, grafikalar) hamda tashqi manbalarga

yo'naltiruvchi giperhavolalarni qamrab oladi. Shu nuqati nazardan ushbu texnologiya bir qator didaktik imkoniyatlarni taqdim etadi.

Birinchidan, ommaviylik va ochiqlik tamoyili asosida virtual loyihaga jalb qilingan barcha o'quvchilar, o'zlarining geografik joylashuvidan qat'i nazar, virtual hujjat ustida birdek teng huquqli asosda ishlay oladilar.

Ikkinchidan, nohiziqlik tamoyili tufayli yerda ma'lumotlar an'anaviy forum yoki bloglardagi kabi qat'iy xronologik tartibdagi zanjirni hosil qilmay, aksincha, foydalanuvchilarga umumiy matn tarkibining istalgan qismiga o'zlari xohlagan vaqtda tahrir va qo'shimchalar kiritish imkoniyati beriladi. Bu esa axborot makonining dinamik tarzda shakllanishini ta'minlaydi.

Uchinchidan, hujjat yaratish tarixining saqlanishi bo'lib, tizim xotirasida matnning barcha variantlari va o'zgarishlari muhrlanadi. Kim, qachon va qanday o'zgartirish kiritgani aniq ko'rinib turadi va zarurat tug'ilganda materialning avvalgi nusxalariga muammosiz qaytish mumkin.

To'rtinchidan, mediaviylik va gipermatn yaratish tamoyili bo'lib, turli formatdagi media-fayllardan foydalanish va ichki-tashqi havolalar zanjirini yaratish orqali o'quvchilar sahifalar o'rtasida erkin harakatlanish hamda axborotni chuqurroq tahlil qilish imkoniga ega bo'ladilar.

Wiki texnologiyasining metodik xususiyatlari haqida fikr yuritishdan oldin viki tizimining tarixi va evolyutsiyasiga to'xtalib o'tsak. Birinchi viki-servisning paydo bo'lishi dasturchi Uord Kanningem (Ward Cunningham) nomi bilan bog'liq bo'lib, u 1995-yilda ichki foydalanish uchun birinchi viki-tarmoqni ma'lumotlar bazasi sifatida yaratgan[1]. Wiki-texnologiyaning rivojlanishida eng muhim burilish nuqtalaridan biri 2001-yilda Wikipedia loyihasining ishga tushirilishi bilan bog'liqdir. Ushbu loyiha Jimmy Wales va Larry Sanger tomonidan asos solingan bo'lib, u bilimlarni ochiq va erkin almashish g'oyasini global miqyosda amalga oshirdi. Wikipedia modeli wiki-texnologiyaning ijtimoiy va ta'limiy salohiyatini keskin kengaytirib, uni nafaqat texnik vosita, balki global bilim platformasiga aylantirdi. Wiki-texnologiya Web 2.0 paradigmasining eng muhim elementlaridan biri sifatida talqin qilinadi. Tim o'reilly Web 2.0 konsepsiyasini shakllantirar ekan, internet foydalanuvchilarini passiv axborot iste'molchisidan faol kontent yaratuvchiga aylantirish g'oyasini ilgari surgan. Shu nuqtai nazardan wiki-texnologiya hamkorlikda bilim yaratish, kollektiv intellekt va ochiq axborot almashinuvi tamoyillariga asoslangan yangi raqamli ta'lim muhitini shakllantirdi.

Wiki texnologiyasining pedagogik nuqtai nazardan bir qator imkoniyatlarni berishi bilan so'nggi yillarda metodik jihatdan rivojlanib bormoqda. Xususan xorijiy tillarni o'qitishda E.Wenger tomonidan ilgari surilgan "amaliyot jamoalari" (communities of practice) konsepsiyasi wiki-texnologiyaning ijtimoiy mohiyatini yanada chuqurroq izohlaydi[2]. Unga ko'ra, bilim individual emas, balki jamoaviy faoliyat jarayonida shakllanadi va rivojlanadi. Wiki platformalari aynan shunday hamkorlikdagi bilim ishlab chiqish muhitini yaratadi. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda wiki-texnologiya konstruktivistik va kommunikativ yondashuvlarning integratsiyasi sifatida baholanmoqda. Tadqiqotchilar, xususan R.Jonassen va boshqalar kognitiv ta'lim nazariyotchilari, wiki muhitini talabalarning mustaqil fikrlashi, tanqidiy tahlil ko'nikmalari va yozma nutq kompetensiyasini rivojlantiruvchi samarali raqamli platforma sifatida e'tirof etadi[3].

Wiki-texnologiya foydalanuvchilar tomonidan yagona hujjat yaratish uchun qulay didaktik sharoitlar yaratgani sababli, u chet tili darslarida o'quvchilarning yozma nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda keng qo'llanilishi mumkin. So'nggi yillarda wiki texnologiyasiga asoslangan chet tilini o'qitish metodikasi doirasida tadqiqot ishlari rivojlanmoqda. Wiki-texnologiyadan foydalanishga bag'ishlangan ilk ishlardan biri B. Gudvin-Jons (B. Godwin-Jones) maqolasi hisoblanib, ushbu tadqiqotda wiki-texnologiyaning o'quvchilarning loyiha faoliyatini tashkil etishdagi metodik imkoniyatlarini ochib beradi[4]. Bunda hamkorlikda o'qitish pedagogik texnologiyasiga alohida e'tibor

qaratiladi. Bir-biridan uzoqda bo'lgan o'quvchilar wiki-servis orqali umumiy hujjat yaratish ustida birgalikda ishlashlari mumkin. Bunda chet tili nafaqat o'qitish maqsadi, balki asosiy muloqot vositasi va jamoaviy mahsulot yaratish vositasi sifatida ham xizmat qiladi. Shu jihatdan wiki-texnologiya ta'limiy ahamiyat bilan bir qatorda tarbiyaviy ahamiyatga ham ega.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, Wiki texnologiyasi ingliz tilini o'qitish jarayonida talabalarning til kompetensiyalarini kompleks rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali pedagogik vositalardan biri hisoblanadi. Wiki platformalari asosida tashkil etilgan ta'lim jarayonida talabalar nafaqat tayyor axborotni o'zlashtiradi, balki uni mustaqil izlaydi, tahlil qiladi, qayta ishlaydi va jamoaviy tarzda yangi kontent yaratishda faol ishtirok etadi. Bunday faoliyat konstruktivistik ta'lim yondashuvi tamoyillariga mos ravishda bilimlarni faol o'zlashtirish va amaliy qo'llash imkoniyatini yaratadi. Wiki texnologiyasidan foydalanish talabalarning yozma nutq kompetensiyasini sezilarli darajada rivojlantiradi. Platformada matnlarni yaratish, tahrirlash va takomillashtirish jarayonida talabalar grammatik me'yorlar, leksik birliklardan o'rinli foydalanish hamda matnning mantiqiy tuzilishiga ko'proq e'tibor qaratadilar. Bundan tashqari, har bir foydalanuvchi tomonidan kiritilgan o'zgartirishlarning saqlanishi o'qituvchiga talabalarning individual faolligini kuzatish va baholash imkonini beradi.

Muhokamalar natijasida Wiki texnologiyasining hamkorlikda o'qitish (Collaborative Learning) modelini amalga oshirishdagi ahamiyati ham aniqlandi. Talabalar umumiy loyiha ustida ishlash jarayonida o'zaro fikr almashadi, muammolarni birgalikda hal qiladi, matnlarni tahrir qiladi va bir-birining ishini baholaydi. Bu esa ularning kommunikativ kompetensiyasi, tanqidiy fikrlashi, jamoada ishlash madaniyati va akademik mas'uliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Wiki texnologiyasining yana bir muhim afzalligi uning mustaqil ta'limni qo'llab-quvvatlash imkoniyatidir. Talabalar darsdan tashqari vaqtda ham platformaga kirib, o'quv materiallarini boyitish, qo'shimcha manbalarni joylashtirish hamda mavjud ma'lumotlarni yangilash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Natijada uzluksiz ta'lim muhiti shakllanadi va ta'lim jarayoni auditoriya bilan cheklanib qolmaydi. Shuningdek, Wiki platformalarining multimedia imkoniyatlari ingliz tilini o'rganish samaradorligini yanada oshiradi. Matnlarga rasm, audio, video, gipermurojaatlar va interaktiv materiallarning qo'shilishi o'quv materiallarini tushunishni osonlashtiradi hamda talabalarda mavzuga nisbatan qiziqishni kuchaytiradi. Ayniqsa, kasbiy yo'naltirilgan ingliz tilini o'qitishda Wiki texnologiyasi elektron lug'atlar, terminologik bazalar va loyiha ishlari bilan integratsiyalashgan holda yuqori samaradorlikni namoyon etadi.

Biroq tadqiqot davomida ayrim muammolar ham kuzatildi. Jumladan, barcha talabalar ham dastlab Wiki platformalaridan samarali foydalanish bo'yicha yetarli raqamli ko'nikmaga ega emasligi, internet sifati va texnik vositalarning imkoniyatlari ba'zan ta'lim jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bundan tashqari, jamoaviy ishlarda ayrim ishtirokchilarning faolligi past bo'lishi yoki tayyor ma'lumotlardan nusxa ko'chirish holatlari uchrashi ehtimoli mavjud. Shu sababli o'qituvchi tomonidan platformadagi faoliyatni muntazam monitoring qilish, aniq baholash mezonlarini ishlab chiqish hamda akademik halollik tamoyillariga rioya etilishini nazorat qilish muhim hisoblanadi. Umuman olganda, olib borilgan tahlillar Wiki texnologiyasining ingliz tilini o'qitishda innovatsion pedagogik vosita sifatidagi samaradorligini tasdiqlaydi. Mazkur texnologiya til ko'nikmalarini rivojlantirish bilan bir qatorda raqamli kompetensiya, axborot bilan ishlash, hamkorlikda o'qish, tanqidiy va ijodiy fikrlash kabi XXI asr kompetensiyalarini shakllantirishga ham xizmat qiladi. Shu bois Wiki texnologiyasini oliy ta'lim muassasalarida, ayniqsa ingliz tilini o'qitish amaliyotida keng joriy etish ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning istiqbolli yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Wiki texnologiyasi ingliz tilini o'qitishda hamkorlikka asoslangan ta'limni tashkil etish, talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini faollashtirish va kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishning samarali pedagogik vositasi hisoblanadi. Wiki platformalaridan maqsadli foydalanish talabalarning yozma nutqi, tanqidiy fikrlashi, axborot bilan ishlash va jamoaviy hamkorlik ko'nikmalarini takomillashtiradi. Shu bois Wiki texnologiyasini ingliz tili darslari mazmuniga integratsiya qilish ta'lim sifatini oshirish hamda zamonaviy raqamli ta'lim muhitini shakllantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Cunningham W. The WikiWikiWeb // Portland Pattern Repository. – 1995. – URL: <http://c2.com/cgi/wiki> (murojaat qilingan sana: 20.06.2025).
2. Wenger E. Communities of Practice: Learning, Meaning, and Identity [Monograph]. – Cambridge: Cambridge University Press, 1998. – 318 p.
3. Jonassen D. H. Designing Constructivist Learning Environments // C. M. Reigeluth (ed.). Instructional-Design Theories and Models: A New Paradigm of Instructional Theory. – Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum Associates, 1999. – P. 215–239.
4. Godwin-Jones R. Emerging Technologies: Wikis and Blogs in Language Teaching // Language Learning & Technology. – 2003. – Vol. 7(2). – P. 12–16.